

## Jahon bankining yetakchi olimlari bilan onlayn uchrashuvi

Jahon bankining yetakchi olimlari, jumladan Uilyam Yang (CAWEP rahbari), Azad Abduxamid (suv resurslarini boshqarish bo'yicha yetakchi mutaxassis), Xayri Alʼ-Djamal (suv resurslarini boshqarish bo'yicha yetakchi mutaxassis), Shavkat Raxmatullaev (suv resurslarini boshqarish bo'yicha bosh mutaxassis), Togjan Alibekova (suv resurslarini boshqarish bo'yicha mutaxassis) bilan "Markaziy Osiyoda suv-energetika dasturi doirasida suv resurslari xavfsizligini oshirish va iqlim o'zgarishiga moslashishga oid masalalar bo'yicha vakillar bilan fikr-mulohazalar almashish" mavzusida onlayn uchrashuv tashkil etildi.



Uchrashuvda TIQXMMI rektori, prof. U.Umurzakov, 1chi prorektor B.Mirzayev, Xalqaro hamkorlik bo'yicha prorektor A.Salohiddinov, GM fakulteti dekani A.Fatxulloev, "Irrigatsiya va melioratsiya" kafedra mudiri I.Begmatov, "Ekologiya va suv resurslarini boshqarish" kafedra mudiri A.Karimov, GTQ kafedra mudiri M.Bakiyev, PKQT va UMOT markazi direktori G'.Bekmirzayev va Xalqaro hamkorlik bo'limi boshlig'i Sh.Raxmonov ishtirok etishdi. Uchrashuvni TIQXMMI rektori, professor O'. Umurzakov institut xodimlarini tanishtirish bilan ochib berdilar. O'z navbatida Jahon banki nomidan Uilyam Yang ham mutaxassislarni tanishtirgandan so'ng, O'zbekistonda suv resurslarini boshqarish borasida olib borilayotgan mintaqaviy va mahalliy ishlar ko'lami yuzasidan fikr-almashishdi. Suv xo'jaligida olib borilayotgan ishlar ko'lami jadal sur'atlarda olib borilayotgani va yanada mintaqaviy suv muammolarini hal etishda kompleks ko'rinishda amalga oshirish, shu jumladan, suv xo'jaligi xodimlarini malakasini oshirish muhim ahamiyat kasb etishi ta'kidlab o'tildi. Uchrashuv iliq va muzokaralarga boy tarzda o'tdi. Jahon banki TIQXMMIga kelgusida yanada ko'proq loyihalar jalb etilishini ta'kidlab, institutning O'zbekiston Respublikasi suv xo'jaligida tutgan o'rni beqiyos ekanini e'tirof etdi. Shu asnoda onlayn uchrashuv yakunlandi.

**TIQXMMI matbuot xizmati**